



SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF FORMING A BALANCE BETWEEN AESTHETIC NEEDS AND SPIRITUAL VALUES IN THE CONSCIOUSNESS OF YOUTH

Shahrizoda Mirzayeva

National University of Uzbekistan

Faculty of Social Sciences

Student of Applied Ethics

mirzayevashahrizoda71@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: aesthetic needs, spiritual values, youth, social networks, artificial beauty, identity, aesthetic consciousness, media culture.

Received: 27.04.26

Accepted: 28.04.26

Published: 29.04.26

Abstract: This article analyzes the socio-psychological aspects of the balance between aesthetic needs and spiritual values among modern youth. The influence of the digital environment, social networks, and mass culture on this process is revealed. As a result of the research, the transformation of aesthetic needs and the ways of harmonizing them with spiritual values are substantiated.

YOSHLAR ONGIDA ESTETIK EHTIYOJLAR VA MA'NAVIY QADRIYATLAR MUVOZANATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHLARI

Shahrizoda Mirzayeva

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti,

Amaliy etika yo'nalishi talabasi

mirzayevashahrizoda71@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: estetik ehtiyoj, ma'naviy qadriyat, yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy go'zallik, identitet, estetik ong, media madaniyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy yoshlar ongida estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatning ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyatning ushbu jarayonga ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot natijasida estetik ehtiyojlarning transformatsiyasi hamda ularni ma'naviy

qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish yo'llari asoslanadi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ БАЛАНСА МЕЖДУ ЭСТЕТИЧЕСКИМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ И ДУХОВНЫМИ ЦЕННОСТЯМИ В СОЗНАНИИ МОЛОДЕЖИ

Шахризода Мирзаева

Национальный университет Узбекистана

Факультет социальных наук

Студентка направления «Прикладная этика»

mirzayevashahrizoda71@gmail.com

Тошкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: эстетические потребности, духовные ценности, молодежь, социальные сети, искусственная красота, идентичность, эстетическое сознание, медиакультура.	Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические аспекты баланса между эстетическими потребностями и духовными ценностями современной молодежи. Раскрывается влияние цифровой среды, социальных сетей и массовой культуры на данный процесс. В результате исследования обосновывается трансформация эстетических потребностей и пути их гармонизации с духовными ценностями.
---	---

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari inson hayotining barcha jabhalarini tubdan o'zgartirib, ayniqsa, yoshlar ongida qadriyatlar tizimi va ehtiyojlar ierarxiyasining qayta shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy madaniyatning keng tarqalishi natijasida yoshlarning dunyoqarashi, didi va ijtimoiy xulq-atvori yangi axborot-madaniy muhitda shakllanmoqda. Bu jarayonda estetik ehtiyojlar tobora muhim ahamiyat kasb etib, ularning mazmuni an'anaviy talqinlardan farqli ravishda yangi ko'rinish kasb etmoqda.[1]

Bugungi kunda vizual kommunikatsiya ustuvor bo'lgan axborot makonida go'zallik tushunchasi ko'proq tashqi ko'rinish, jozibadorlik va idealizatsiyalashgan obrazlar orqali ifodalanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan estetik standartlar yoshlar ongida muayyan "ideal ko'rinish" modelini shakllantirib, ularning estetik ehtiyojlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada estetik ehtiyojlar nafaqat kengayib, balki soddalashtirilgan va standartlashgan shaklga ega bo'lib bormoqda. Bu holat estetik ongning mazmuniy chuqurligidan ko'ra uning tashqi ifodalariga urg'u berilayotganini ko'rsatadi.[2]

Shu bilan birga, estetik ehtiyojlarning kuchayishi har doim ham ma'naviy qadriyatlar rivoji bilan uyg'unlashib borayotgani kuzatilmaydi. Aksincha, ayrim vaziyatlarda tashqi estetik

mezonlarning ustuvorligi ichki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning nisbatan susayishiga olib kelmoqda. Bu esa yoshlar ongida qadriyatlar tizimining nomutanosib shakllanishi, yuzaki estetik didning kuchayishi va "sun'iy go'zallik" fenomenining keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, virtual makonda yaratilayotgan ideal obrazlar yoshlarning o'zini anglash jarayoni, psixologik holati hamda ijtimoiy xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.[3] Mazkur jarayonni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki estetik ehtiyojlarning shakllanishi faqat individual xususiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, madaniy kontekst, ta'lim tizimi va kommunikativ makon omillari bilan ham bevosita bog'liqdir. Yoshlarning identiteti, o'zini anglash darajasi, ijtimoiy moslashuvi hamda qadriyatlar tizimi aynan ushbu omillar ta'sirida shakllanadi. Shu bois estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash shaxs rivojining muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma'naviy islohotlar doirasida yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviy kamoloti va estetik madaniyatini rivojlantirish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Xususan, "Inson qadri uchun" tamoyili hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida yoshlarning barkamol rivojlanishi, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish bilan bir qatorda estetik madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.[4] Bu esa estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashni dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida kun tartibiga olib chiqadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligini shundan iboratki, zamonaviy yoshlar ongida estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi nafaqat individual rivojlanishga, balki jamiyatning umumiy ma'naviy muhitiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ushbu masalani ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan kompleks o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu munosabat bilan tadqiqotning maqsadi zamonaviy yoshlar ongida estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tizimli ravishda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida estetik ehtiyojlarning shakllanish omillarini aniqlash, ularning yoshlar ongiga ta'sirini o'rganish, ma'naviy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligini ochib berish hamda mazkur muvozanatni ta'minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish belgilandi. Tadqiqot obyekti sifatida zamonaviy yoshlar ongida kechayotgan estetik va ma'naviy jarayonlar tanlangan bo'lsa, predmeti sifatida estetik ehtiyojlar hamda ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Estetik ehtiyoj va ma'naviy qadriyatlar masalasi zamonaviy gumanitar tafakkurda ko'p tarmoqli ilmiy muammo sifatida talqin qilinadi. U falsafa, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik tutashuvida shakllanib, insonning ichki

dunyosi, ijtimoiylashuvi va qadriyatlar tizimini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois estetik ehtiyoj faqat go'zallikka intilish emas, balki shaxsning hissiy-qadriy idroki, o'zini namoyon qilishi va ijtimoiy moslashuvi bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida baholanadi.

Ilmiy adabiyotlarda estetik ehtiyoj go'zallik, uyg'unlik va nafislikni idrok etishga yo'naltirilgan ichki ehtiyoj sifatida tavsiflanadi. Yu.B. Borev estetikani insonning borliqqa bo'lgan qadriy munosabati bilan bog'lab, estetik did, baholash va idealning o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi [5]. Bu yondashuv estetik ehtiyojning ongli qadriy munosabat sifatida shakllanishini anglatadi. Demak, u shaxsning madaniy saviyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasi bilan bog'liq murakkab tuzilishga ega.

Klassik estetika estetik ehtiyojni inson kamoloti va ichki uyg'unligining omili sifatida talqin qiladi, bunda go'zallik ezgulik va ma'naviy yuksaklik bilan bog'lanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa bu tushuncha ommaviy madaniyat, media va iste'mol jamiyati ta'sirida qayta ko'rib chiqilmoqda, bu esa estetik ehtiyojlarning tarixiy o'zgaruvchanligini ko'rsatadi.

Ma'naviy qadriyatlar ham insonning jamiyat, o'ziga va boshqalarga munosabatini tartibga soluvchi mezonlar tizimi sifatida talqin qilinadi. G. Rickert madaniyatni aynan qadriyatlar orqali tushuntirib, ularning ijtimoiy hayotdagi muhim rolini ta'kidlaydi [6]. Estetik ehtiyojlar ham shu tizim bilan uzviy bog'liq bo'lib, shaxs rivojida ular bir-birini to'ldiradi. Estetik ehtiyoj go'zallikka intilishni ifodalasa, ma'naviy qadriyatlar unga yo'nalish va mazmun beradi. Aks holda estetik didning yuzakilashuvi va qadriyatlar muvozanatining buzilishi yuzaga keladi.

A.F. Losev estetikani insonning borliq bilan ma'noli munosabati sifatida talqin qilib, estetik idrokda shakl va mazmun birligini ta'kidlaydi. Bu qarash zamonaviy yoshlar orasida tashqi ko'rinishning ustunlashuvi estetik ehtiyojning mohiyatidan uzoqlashuvini tushuntiradi. Psixologik yondashuvlarda esa estetik ehtiyoj shaxsning o'zini anglash, ifodalash va ijtimoiy moslashuvi bilan bog'liq holda izohlanadi. Ayniqsa, yoshlik davrida identitet, ijtimoiy qabul qilinish va tengdoshlar ta'siri estetik tanlovlarga bevosita ta'sir qiladi.

Sotsiologik nuqtai nazardan estetik ehtiyojlar ijtimoiy muhit, kommunikatsiya va madaniy iste'mol shakllari bilan belgilanadi. Ommaviy madaniyat va vizual media ta'sirida estetik me'yorlar standartlashib, yoshlarning estetik ehtiyojlari ko'pincha ichki emas, balki tashqi ijtimoiy ta'sirlar asosida shakllanadi. Bu esa estetik va ma'naviy qadriyatlar muvozanatini buzuvchi omil bo'lishi mumkin.

Milliy tadqiqotlarda estetik tarbiya va ma'naviy qadriyatlar barkamol shaxsni shakllantirish bilan bog'liq holda yoritiladi. E. Yusupov va B. Karimov estetik ong rivoji ma'naviy kamolot bilan uyg'un bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi [7]. Ularning yondashuvida

estetik ehtiyojlar insonning umumiy madaniyati va axloqiy mezonlari bilan bog'liq hodisa sifatida qaraladi.

Zamonaviy sharoitda raqamli madaniyat, virtual muhit va vizual axborot oqimining kuchayishi estetik ehtiyojlarning transformatsiyasiga olib kelmoqda. Natijada ular ko'proq tezkor taassurot va tashqi namoyish bilan bog'lanib qolish xavfiga ega. Shu sababli estetik ehtiyojlar masalasi axloqiy me'yorlar va media savodxonlik bilan birgalikda o'rganilmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nazariy asoslar yetarli ishlab chiqilgan bo'lsa-da, estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlarning zamonaviy yoshlar ongida qanday shakllanishi hali to'liq ochib berilmagan. Ayniqsa, raqamli muhit ta'siri, identitet bilan aloqasi va qadriyatlarga ta'siri bo'yicha kompleks tadqiqotlar zarur. Demak, mazkur masalani ijtimoiy-psixologik jihatdan chuqur o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda yoshlar ongida estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar muvozanatini o'rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Unda falsafiy, sotsiologik va psixologik tahlil usullari uyg'unlashtirilib, mazkur hodisalar o'zaro bog'liqlik, shakllanish omillari va ijtimoiy namoyon bo'lish mexanizmlari orqali tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosini tizimli yondashuv tashkil etib, estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar yagona ijtimoiy-psixologik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv ularning shakllanishi oilaviy tarbiya, ta'lim muhiti, ijtimoiy tajriba va media ta'siri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Qiyosiy tahlil orqali esa an'anaviy va zamonaviy estetik qarashlar o'rtasidagi farqlar ochib berildi hamda zamonaviy muhitda tashqi namoyish va ijtimoiy tasdiqqa yo'naltirilgan motivlar kuchaygani aniqlandi [8].

Kuzatish metodi yordamida yoshlarning kundalik estetik tanlovlari, o'zini namoyon etish shakllari va ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi o'rganildi. Kontent tahlil asosida esa raqamli platformalarda tarqalayotgan estetik obrazlar va ular orqali ilgari surilayotgan qadriyatlar tahlil qilinib, estetik ehtiyojlar ko'pincha vizual jozibadorlik va ijtimoiy e'tirof bilan bog'lanayotgani aniqlandi [9].

Shuningdek, ijtimoiy-psixologik yondashuv orqali identitet shakllanishi, o'zini baholash va ijtimoiy moslashuv jarayonlari estetik ehtiyojlar bilan bog'liqlikda tahlil qilindi. Analiz va sintez metodlari yordamida mazkur omillar tizimli ravishda umumlashtirilib, ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari yoritildi. Interpretativ yondashuv esa estetik tanlovlarning ijtimoiy mazmunini ochib berishga xizmat qildi.

Natijada qo'llanilgan metodlar majmui tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish, nazariy va amaliy jihatlarni uyg'unlashtirish hamda ilmiy asoslangan xulosalarga kelish imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yoshlar ongida estetik ehtiyojlarning shakllanishi murakkab, ko'p omilli va dinamik ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonning asosiy xususiyati shundaki, u faqat individual did yoki shaxsiy qiziqishlar bilan emas, balki keng ijtimoiy muhit, kommunikativ makon, madaniy tendensiyalar va ayniqsa raqamli texnologiyalar ta'siri ostida shakllanadi. Raqamli transformatsiya sharoitida estetik ehtiyojlar tobora vizual ko'rinishga ega bo'lib, ularning mazmuni tezkor idrok etiladigan, tashqi jozibadorlikka asoslangan va ijtimoiy e'tirof bilan chambarchas bog'liq shaklga o'tmoqda.[10] Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar estetik qarashlari va didining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biriga aylangan. Vizual kontent ustuvor bo'lgan platformalarda muvaffaqiyat, go'zallik va ijtimoiy maqom ko'pincha tashqi ko'rinish, uslub va estetik namoyish orqali baholanadi. Natijada yoshlar ongida go'zallik tushunchasi ichki mazmun, ruhiy uyg'unlik yoki axloqiy kamolot bilan emas, balki standartlashtirilgan vizual obrazlar orqali talqin qilinmoqda. Bu esa estetik ehtiyojlarning chuqur mazmuniy jihatlari emas, balki tashqi ifoda shakllarining ustuvorlik kasb etayotganini ko'rsatadi. Bunday sharoitda yoshlar estetik tanlovlarida individuallikdan ko'ra ommaviy stereotiplarga moslashish tendensiyasi kuchayadi.

Mazkur jarayon psixologik nuqtai nazardan ijtimoiy taqqoslash va o'zini namoyon qilish ehtiyojlari bilan ham bevosita bog'liqdir. Yoshlar, ayniqsa, o'z identiteti shakllanayotgan davrda, o'zini boshqalar bilan qiyoslash orqali o'z bahosini aniqlashga intiladi. Raqamli makonda esa bu jarayon yanada keskinlashadi, chunki u yerda idealizatsiyalashgan, qayta ishlangan va tanlab ko'rsatilgan hayot tarzlari namoyish etiladi. Natijada yoshlar o'z real imkoniyatlari va tabiiy qiyofasini emas, balki tashqi standartlarga moslashishni ustuvor deb qabul qilishi mumkin. Bu esa estetik ehtiyojlarning ichki rivojlanish vositasi sifatidagi rolini kamaytirib, uni ijtimoiy e'tirof va tasdiqlanish instrumentiga aylantiradi. Tadqiqot davomida "sun'iy go'zallik" fenomeni ham alohida tahlil qilindi. Ushbu fenomen zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratilgan idealizatsiyalashgan estetik obrazlarni anglatadi. Bunday obrazlar real hayotdan ma'lum darajada uzoqlashgan bo'lib, yoshlar ongida go'zallik mezonlarini soddalashtiradi va ularni yagona qolip asosida qabul qilishga olib keladi. Natijada estetik ehtiyojlarning tabiiy va individual rivojlanishi cheklanadi, shaxs esa o'zini tashqi mezonlar asosida baholashga odatlanadi. Bu esa ichki qoniqmaslik, ijtimoiy bosim va psixologik beqarorlik kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.[11] Shuningdek, tahlillar estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi nomuvozanat muammosini ham ochib berdi. Agar estetik ehtiyojlar faqat tashqi ko'rinish va vizual jozibadorlik bilan cheklanib qolsa, axloqiy mezonlar, ichki madaniyat va ma'naviy qadriyatlar ikkinchi darajaga tushib qoladi. Bu esa yoshlar ongida qadriyatlar tizimining

biryoqlama shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, estetik mezonlar ma'naviy asoslardan ajralgan holda shakllanganda, go'zallik tushunchasi o'zining asl mazmunini yo'qotib, faqat tashqi effektga aylanish xavfi paydo bo'ladi. Biroq tadqiqot natijalari estetik ehtiyojlarning ijobiy salohiyatini ham ko'rsatadi. To'g'ri yo'naltirilgan estetik ehtiyojlar yoshlarning didini, madaniy saviyasini, go'zallikni anglash qobiliyatini va hayotga nisbatan estetik munosabatini rivojlantiradi. Agar estetik ehtiyojlar ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashsa, ular shaxsning barkamol rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omilga aylanadi. Shu bois muammo estetik ehtiyojlarning mavjudligida emas, balki ularning qanday mazmun asosida shakllanishidir. Natijalar asosida yoshlar ongida estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar muvozanatini shakllantirishning muhim yo'nalishlari aniqlashtirildi. Avvalo, ta'lim tizimida estetik tarbiya ma'naviy tarbiya bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi zarur. Bundan tashqari, oilaviy muhit yoshlarning ichki qadriyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, raqamli makonda sog'lom estetik idealni targ'ib etuvchi mazmunli kontentni kengaytirish ham dolzarb vazifalardan biridir. Eng muhimi, yoshlar orasida media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sun'iy estetik stereotiplarga nisbatan mustaqil pozitsiyani shakllantirish mumkin.[12]

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yoshlar ongida estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni shakllantirish murakkab, ammo boshqariladigan jarayon hisoblanadi. Ushbu muvozanatni ta'minlash shaxsning har tomonlama rivojlanishi va jamiyatning ma'naviy barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari zamonaviy yoshlar ongida estetik ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi munosabat murakkab, dinamik va ko'p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon ekanini ko'rsatdi. Tahlillar asosida aniqlandiki, estetik ehtiyojlarning shakllanishi bugungi sharoitda faqat shaxsiy did yoki individual qiziqishlar bilan emas, balki raqamli muhit, ommaviy kommunikatsiya, ijtimoiy taqqoslash, tengdoshlar ta'siri va identitet izlanishlari bilan bevosita bog'liq holda yuz bermoqda. Shu bois estetik ehtiyojlar masalasini tor ma'noda go'zallikka intilish sifatida emas, balki yoshlar ongida qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholash lozim. Tadqiqot jarayonida estetik ehtiyojlarning kuchayishi o'z-o'zidan salbiy hodisa emasligi, aksincha, ular to'g'ri yo'naltirilganda shaxsning didi, madaniy saviyasi, nafislikni anglash qobiliyati va hayotga estetik munosabatini boyituvchi omil bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Biroq mazkur ehtiyojlar ma'naviy-axloqiy mezonlar bilan uyg'unlashmagan holatda, ular tashqi ko'rinish, sun'iy jozibadorlik va ommaviy e'tirofqa qaram bo'lgan biryoqlama yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. Aynan shunday sharoitda estetik ehtiyojlarning mazmuniy chuqurligi susayib, ularning tashqi namoyishkorlik shakli

ustuvorlashadi. Bu esa yoshlar ongida qadriyatlar ierarxiyasining siljishiga, ichki barkamollikdan ko‘ra tashqi tasvirga ko‘proq e‘tibor qaratilishiga olib keladi.[13] Shuningdek, tadqiqot estetik ehtiyojlar va ma‘naviy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanat shaxsning psixologik barqarorligi, ijtimoiylashuvi va o‘zini anglash darajasi uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Agar mazkur muvozanat ta‘minlansa, yosh shaxsda estetik sezgirlik bilan birga axloqiy mas‘uliyat, ijtimoiy ong, ichki tartib va maqsadga yo‘naltirilganlik ham shakllanadi. Aksincha, estetik mezonlarning ma‘naviy qadriyatlardan ajralib qolishi shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabatida noaniqlik, ijtimoiy bosimga yuqori darajada bog‘liqlik va sun‘iy idealarga qaramlikni kuchaytirishi mumkin. Bu esa yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va ichki mustaqilligiga salbiy ta‘sir etuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida shunday ilmiy xulosaga kelish mumkinki, zamonaviy yoshlar tarbiyasida estetik ehtiyojlarni shakllantirish jarayoni ma‘naviy qadriyatlar tizimidan ajralgan holda olib borilmasligi kerak. Estetik tarbiya faqat tashqi did, san‘atga qiziqish yoki ko‘rinish madaniyatini emas, balki go‘zallikning ichki ma‘no, ezgulik, odob, munosabatlar madaniyati va ruhiy uyg‘unlik bilan bog‘liq jihatlarni ham qamrab olishi lozim. Shu ma‘noda estetik ehtiyojlar va ma‘naviy qadriyatlar uyg‘unligi barkamol shaxsni shakllantirishning zarur nazariy va amaliy sharti hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, ta‘lim muassasalarida estetik tarbiya mazmunini kengaytirib, uni axloqiy tarbiya, media madaniyat va ma‘naviy kamolot bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish zarur. Ikkinchidan, oilada yoshlarning tashqi ko‘rinishiga beriladigan baho bilan bir qatorda, ularning ichki madaniyati, muomala estetikasi va odobiy fazilatlariga ham tizimli e‘tibor qaratilishi lozim. Uchinchidan, raqamli makonda yoshlar uchun sog‘lom estetik idealni namoyon etuvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan mazmunli kontentni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. To‘rtinchidan, yoshlar orasida tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va mustaqil estetik baholash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali sun‘iy estetik stereotiplarga nisbatan barqaror ichki immunitet hosil qilish zarur. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yoshlar ongida estetik ehtiyojlar va ma‘naviy qadriyatlar muvozanatini shakllantirish bugungi jamiyatning muhim strategik vazifalaridan biridir. Mazkur muvozanatni ta‘minlash orqali yoshlarning nafaqat estetik didi va madaniy saviyasi, balki ma‘naviy barkamolligi, ijtimoiy mas‘uliyati va mustaqil dunyoqarashi ham rivojlanadi. Shunday ekan, estetik ehtiyojlarni shakllantirish masalasi yoshlar siyosati, ta‘lim-tarbiya tizimi va ijtimoiy-ma‘naviy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Manovich L. The Language of New Media. – Cambridge: MIT Press, 2001.
2. Baudrillard J. Simulacra and Simulation. – Michigan: University of Michigan Press, 1994.
3. Turkle S. Alone Together. – New York: Basic Books, 2011.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev nutqlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi materiallari.
5. Борев Ю.Б. Эстетика. – Москва: Высшая школа, 2002.
6. Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре. – Москва: Республика, 1998.
7. Yusupov E., Karimov B. va boshqalar. Estetik tarbiya va ma’naviy qadriyatlar masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent, 2018.
8. Адорно Т. Эстетическая теория. – Москва: Республика, 2001.
9. McQuail D. McQuail’s Mass Communication Theory. – London: Sage Publications, 2010.
10. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996.
11. Baudrillard J. The Consumer Society. – London: Sage, 1998.
12. Potter W.J. Media Literacy. – Thousand Oaks: Sage, 2010.
13. Frankl V.E. Man’s Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 2006.